



JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZLARI DAVRIDA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: TARIXIY TAJRIBA (1998, 2008, 2020)

Choriyev Tohirbek Shuhrat o'g'li

Millat Umidi universitetining Accounting and
Finance fakulteti 1-bosqich talabasi.

E-mail: choriyevtohir3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17509714>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

*Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz; kapital
parvoz; xalqaro zanjir reaksiyasi;
fond bozori; mulkning daxlsizligi;
moliyaviy beqarorlik; ipoteka
bozori;*

ABSTRACT

Dunyo o'tgan asrning oxiri hamda yangi mingyillik davomida bir necha marta chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirdi. Masalan, 1998-yildagi Osiyo moliyaviy inqirozi, 2008-yilda sodir bolgan global moliyaviy inqiroq hamda 2020-yildagi COVID-19 sabab yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzullar deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga o'zining ulkan ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur maqolada ushbu moliyaviy inqirozlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy holatini hamda kelajakda boladigan shu kabi vaziyatarga tarixiy tajribalardan xulosa qilib, ularga oldindan yechim tayyorlash kerak ekanligi tahlil qilinadi.

1998 yilgi Osiyo inqirozi dastlab Tailandda boshlanadi va jadal su'ratlar bilan Osiyoning Sharqiy hamda Janubi-Sharqiy hududlariga tarqaladi. Bu inqirozning keltirib chiqarishi mumkin bolgan xavflari butun dunyodagi davlatlarni tahlikaga solib qo'ydi. Ammo buning davomiyligi uzoqqa cho'zilmadi va tezda bartaraf qilindi. Tom Yum Kung deb nomlanuvchi va dastlab Tailandda boshlangan bu inqiroz Tailandda chet el valyutasining yo'qligi sababli bahtni (Tailand pul birligi ฿) o'zgartirishga majbur bo'lganidan keyin Tailandda bahtning qulashi ortidan kelib chiqadi.

1997-yilning iyulidan 1998-yilning yanvarigacha baht ozining qariyb 50% qiymatini yo'qotdi. Kapital parvoz deyarli darhol boshlandi va xalqaro zanjir reaksiyasini boshlab berdi. Tailand esa barcha tashqi qarzlarni oz bo'yniga oldi. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, so'ngra esa Yaponiya va Janubiy Koreada valyuta qiymati keskin pasayib ketti, fond bozori va boshqa aktivlarning qiymati keskin tushib ketti.

Bundan tashqari Indoneziya rupiysi ham 1998-yil iyunidan 1999-yil iyunigacha 2,400 dan 14,900 gacha o'z qiymatini yo'qotdi, bu uning dastlabgi qiymatining oltidan bir qismini tashkil qilardi. Inqiroq oqibatida Indoneziya iqtisodiyoti 1997-yildagi 4.7% o'sishdan 1998-yil -13.1% ga tushib ketti. [1;2]

Garchi bu moliyaviy beqarorlik osiyoning rivojlangan davlatlariga ham o'z ta'sirini korsatgan bo'lsa-da, endigina mustaqillikga erishib, rivojlanish yo'liga qadam bosayotgan O'zbekiston ushbu inqirozning markaziy oqibatlaridan nisbatan himoyalangan holda chiqdi.

Bunga sabab esa tashqi qarzning kamligi va tizimli valyuta va kapital cheklovlari deb korsatildi. [3;152]

Bu paytda O'zbekiston hukumat iqtisodiyot tarkibini qayta qurish va yangi korxonalar parpo etish maqsadida davlat budjetidan, respublika banklaridan olinadigan kreditlardan, korxonalarning o'z sarmoyalaridan va aholi sarmoyalaridan birgina 1999-yilning o'zida taqriban 537 milliard so'mni va 2002-yilda esa 1 trillion 400 milliard so'mni investitsiya qildi. Chet el investitsiyalarini kirib kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. 1998-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „ Chet el investitsiyalari to'g'risida” gi „ Chet ellik investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida” gi qonunlarni chet ellik investorlarning respublikamizda yaratiladigan mulklarning daxlsizligi va erkin faoliyati uchun huquqiy zaminlarni mustahkamlab berdi. [3;153]

Insoniyat boshidan kechirgan yana bir katta iqtisodiy inqirozlardan biri 2008-yildagi AQSHning ipoteka bozoridagi balon portlashi global moliyaviy inqirozi hisoblanadi. Uning boshlanishi bir qator omillar: iqtisodiy rivojlanishning umumiy davriyligi, ipoteka inqirozi va xom ashyo tovarlari, jumladan neftga katta narxlar bilan bog'lanadi. 2008-yilda AQSHning yirikligi bo'yicha 4-eng katta banki Lehman Brothers kasodga uchraydi. Bu bankrot Amerika tarixida eng yirigi bo'ladi va fond birjalaridagi narxlarning keskin tushib ketishiga sabab boladi. Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, AQSH va Yevropa banklari 2007-yilning Yanvaridan 2009-yil Sentabriga qadar 1 trillion dollardan ortiq zarar ko'rdi. Inqiroz oqibatida esa AQSHning uy-xo'jalik boyligi 2007-yilning ikkinchi choragida 61,4 trillion dollardan 2009-yilning birinchi choragida 50,4 trillion dollargacha pasaydi, bu esa iste'mol va biznes investitsiyalarining kamayishiga olib keldi. [1;1]

Bu inqiroz haqida Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) rasmiy vakili Jyerri Rays „ Oxirgi 10 yil biz jahon moliyai inqirozi oqibatlarini his qilmoqdamiz. Bu inqiroz, ehtimol, zamonaviy tarixdagi eng yomoni bo'lsa kerak” deb aytgan jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan brifingda. Raysning aytishicha XVJga a'zo bir necha davlatlarga moliyaviy inqirozdan tiklanib olish uchun jami miqdorda 1.5 trillion dollar taqdim etilgan. Uning aytishicha, bu yordamning ijobiy oqibatlari bugungi kundagi jahon iqtisodiyotida ham korish mumkin. „ Men bu XVJning muvaffaqiyati demayman, biroq XVJ buning bir qismi bo'lgan” deb ta'kidlab o'tgan Rays.

Bu moliyaviy inqiroz albatta O'zbekiston inqisodiyotiga ham ulkan ta'sirini korsatdi, ayniqsa bu tashqi savdo, ijtimoiy yo'nalishlar va xalqari investitsiyalar kabi iqtisodning asosiy qismini tashkil qiluvchi sohalarda yaqqol ko'rinib qoldi. Masalan, inqiroz davomida global talabning pasayishi oqibatida, O'zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari hisoblanadigan paxta va gazning eksport miqdori keskin pasayib ketadi. Inqiroz ta'siri ostida davlatda iqtisodiy nobarqarorlik paydo boladi va bu esa ish o'rinlarining yaratilish jarayonini sekinlashtiradi. Tabiiyki bunda aholini kerakli ish bilan ta'minlash kabi muammolar kelib chiqadi. Bundan tashqari inqiroz davomida xalqaro investitsiyalar miqdori ham kamayadi va bu davlatda iqtisodiy o'sishni sekinlashishiga olib keladi.

Zamonaviy tarixning eng yangi iqtisodiy inqirozi 2020-yil COVID-19 pandemiyasi sabab kelib chiqdi. Bunga sabab esa koronavirus oqibatida dunyo bo'ylab eksport va import mahsulotlari aylanmasining miqdori keskin tushib ketishi bo'ldi va ko'pgina davlatlar moliyaviy tanazzulga yuz tutdi, chunki dunyoda deyarli barcha davlatlar o'zida mavjud bo'lgan resurslarini eksport qilish orqali o'zining iqtisodiyotini barqaror ushlab turishga harakat qiladi.

Bu inqiroz oqibatida eng katta moliyaviy zarar ko'rgan davlatlardan biri bu Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi. Amerikada iqtisodiyotning qariyb 3.5% ga tushib ketishi kuzatildi va bu esa 1946-yil Ikinchi Jahon urushidan keyingi eng katta iqtisodiy tushish boldi. Garchi keyinchalik kuzatilgan iqtisodidagi 1% o'sish qayta tiklanishga umid bergan bo'lsada, bu paytga kelib haligacha 9.8 million aholi ishsizlik bilan kurashayotgan edi va 23.8 million kishi asosiy ehtiyojlar ta'minotidan chetta qolayotgan edi. [4;1]

Albatta AQSHdagi kabi O'zbekistonda ham iqtisodiyotning o'sish su'rati sezilarli darajada tushib ketdi. Masalan, birgina 2020-yilning o'zida Covid-19 pandemiyasi ta'sirida iqtisodiyot o'sish su'rati atiga 2% ni tashkil qilardi. Biroq, tiklanish jarayoni darhol 2021-yil boshlanib ketdi va shu yilning o'zida 7.4% iqtisodiy o'sish darajasiga erishilindi. Keyingi yillarda ham bu barqarorlik davom etdi va bu davlatning har qanday iqtisodiy shoklarga tayyorligini va moslashuvchanligini ko'rsatadi. [1;3]

O'zbekistonda inflatsiya darajasi ham pandemiya va global inqirozlar davrida keskin tarzda oshib ketdi. 2020-yil inflatsiya darajasi 12.87% tashkil qildi, bu esa narxlarning umumiy darajasi ortishining yuqori tezligini anglatadi. Keyingi yillarda hukumatning olib borgan ilg'or iqtisodiy siyosati samarasida, inflatsiya darajasi 2021-yil 10.85%ga, 2023-yil esa 8.77%ga tushdi. [1;4]

Tahlil Yo'nalishi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
YIM o'sish su'rati (%)	2.0	7.4	5.7	5.99
Inflatsiya darajasi (%)	12.87	10.85	11.45	8.77
Ishsizlik darajasi (%)	5.29	5.35	4.54	5.53
Monetar siyosati	Foizlar pasaytirildi	Yomshoq siyosat	Foizlar ko'tirildi	Inflatsiyaga qarshi siyosat

(O'zbekistonning 2020-yil pandemiya iqtisodiy inqirozidan keyingi rivojlanish su'rati raqamlarda)

Iqtisodiy inqirozlar barcha davrlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan tabiiy jarayon hisoblanadi va bu iqtisodiyotning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihatni inobatga olish kerakki, bu kabi jarayonlar kutilmaganda ham sodir bo'lishi mumkin va bu yirik rivojlangan davlarning iqtisodiyotiga ham o'zining ulkan salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu qatorda biz yuqorida ko'rgan oxirigi o'n yilliklarning eng katta inqirozlari davrida O'zbekistonning iqtisodiy holati ham misol bo'la oladi. Shu bilan birga, biz davlatning inqirozlar davridagi iqtisodiy siyosiy harakatlari haqida ham mulohaza yuritdik va bu kelajakda kelishi mumkin bo'lgan xavflarga immunitetning shakllanishiga yordam beradi va innovatsiyon rivojlanishni jadallashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunboyev Ma'ruf. „Iqtisodiy inqirozlarning sabablari va ularning oldini olish choralari“. <https://inlibrary.uz/index.php/siad/article/view/81656>

2. R. Pomfret — “Central Asia and the Global Economic Crisis”.
https://www.files.ethz.ch/isn/103738/07_Central%20Asia%20and%20the%20Global%20Economic%20Crisis.pdf
3. Qamariddin Usmonov. O‘zbekiston tarixi (Akademik Litsey va Kasb-hunar kollejlarning 2-kurs talabalari uchun darslik) 2005-yilgi nashr (152-153 b).
<https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/Q.Usmonov,%20M.Sodiqov,%20S.Burxonova.%20O'zbekiston%20tarixi.pdf>
4. The Washington Post official web-site. Theme: 2020 was the worst year for economic growth since World War II. <https://www.washingtonpost.com/business/2021/01/28/gdp-2020-economy-recession/>

